



SHOSH O'LKASIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN MUHADDISLAR

Mahamadjonov Qobil

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi
Telefon raqami: (90) 355-65-38

Sh.Umaraliyev

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15631963>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 07-June 2025 yil

Nashr qilindi: 10-June 2025 yil

KEY WORDS

Hadis, muhaddis, roviy, Shosh, Movarounnahr, Qaffol Shoshiy, Haysam Shoshiy.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekistonning Shosh o'lkasidagi muhaddislarning hadis ilmi faoliyati, ilmiy safarlari, ularning mintaqa hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissalarini to'g'risida gap boradi.

Asosiy qism

Shosh (شاش) shahri arab tilida "shin" harfi bilan yoziladi. Ushbu nom qadimgi Movarounnahr, hozirda O'zbekiston hududida joylashgan Toshkent shahri hamda uning atrofidagi joylarga nisbatan qo'llangan. Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon" asarida Shosh shahriga haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tgan: "Bu — Shosh deb ataladigan shahar. Unga nisbat qilinadigan shaxslar kamdan-kam uchraydi. Biroq Shoshdan ko'plab olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ulamo, roviylar va adiblar shu yerga nisbat berilgan. Mazkur mintaqa Movaurronahrda joylashgan bo'lib, undan keyin esa turkiylar yurtiga tutashgan Sirjon va unga yaqin hududlar joylashgan".

Tarixiy manbalar va adabiyotlardan ma'lumki, IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat jadal taraqqiy qilgan. Binobarin, bu mintaqadagi Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Termiz, Xiva, Shosh (Toshkent) kabi qadimiy shaharlar islom dunyosida ilmiy-madaniy madaniy markazlar sifatida mashhur bo'lgan. Jumladan, Shoshdan hadis, fiqh kabi islom ilmlarida ko'plab taniqli olimlar yetishib chiqqan. Bu yerda tug'ilib, faoliyat ko'rsatgan ko'plab buyuk zotlar, olimlar "Shoshiy" nisbasi bilan butun dunyoga tanilganlar. Ushbu maqolada "Shoshiy" nisbasini olgan ayrim muhaddislarning faoliyati hamda ilmiy merosi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Yoqut Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" asarida hozirgi Toshkent mintaqasida joylashgan Shosh o'lkasi Shosh diyorida faoliyat yuritgan Abul Hasan Ali ibn al-Hojib ibn Junayd Shoshiy, Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad ash-Shoshiy, al-Hokim Abdulaziz ibn Abdurrahmon as-Sullamiy ash-Shoshiy ismli muhaddislar borligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Ushbu asarda nomi zikr etilgan hadis ilmi bilan shug'ullangan olimlardan biri Abul Hasan Ali ibn al-Hojib ibn Junayd Shoshiy sanaladi. Ayrim manbalarda uning ismi Abu Ali Hasan ibn Sohib ibn Humayd Shoshiy deb ham atalgan. Ilm talabida safar qilib, Huroson, Iroq, Hijoz va Shomga borgan. U hadis olimlaridan, undan esa boshqalar rivoyat qilganlar. Ali Shoshiy Shoshda milodiy 926-yil (hijriy 314-yil)da vafot etgan. U Yunus ibn Abd al-A'la va Ali

ibn Xushramdan hadis rivoyat qilgan. Abu Bakr ibn Ja'bariy, Muhammad ibn Muzaffar va boshqalar undan hadis rivoyat qilishgan. "Al-Irshod" ("Rahnamolik qilish") asari Ali ibn Hojib ibn Junayd Shoshiy qalamlariga mansub .

Yoqut Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" asaridan boshqa manbalarda Ali ibn Nasr Shoshiy, Abu Ali al-Hofiz Shoshiy, Abu Sa'id Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Qaffol Shoshiy, Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiy kabi muhaddislar keltirilgan bo'lib, quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tiladi.

Birinchisi, Ali ibn Nasr Shoshiy bo'lib, ushbu olim manbalarda shayx, olim, ishonchli muhaddis sifatida tilga olingan. Olimning to'liq ismi Abu Fath Nasr bin Hassan bin Qosim Turkiy Shoshiy sanaladi. Ali ibn Nasr Shoshiy 406/1015-yilda tavallud topgan.

Muhaddis savdogar va roviy sifatida Shosh o'lkasidan boshqa yurtlarni ham kezib, moddiy va ma'naviy tomondan muvaffaqiyatlarga erishdi. Umrining oxirlarida Misrda Abu Hasan Taffoldan, Nishopurda Abu Husayn Forisiy va Ibn Masrurdan, Surda Xatibdan, Iskandariyada Husayn ibn Muhammad Ma'fariydan hadis eshitgan.

Ali ibn Nasr Shoshiydan Abu Qosim Ibn Samarqandiy, Abdulxoliq Yusufiy, Nasr Ibn Nasr Akbariy va Tohir Ibn Mufavvoz kabi muhaddislar rivoyat qilganlar. Olim 486/1093 yili vafot etgan .

Ikkinchisi, Hofiz Abu Ali Shoshiy(الشاشي علي أبو الحافظ) bo'lib, hofiz va muhaddis darajasiga yetgan olim bo'lgan. Abu Ali Shoshiy milodiy to'qqizinchi asrda Shoshda tug'ilib, voyaga yetgan. Uning tug'ilgan yili borasida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Manbalarda imom, hofiz kabi nomlar bilan eslangan Abu Ali Shoshiy ko'p yurtlarni kezgan bo'lib, ilm talabida Xuroson, Iroq, Shom, Makka va Madina, Yaman, Misrdagi turli tabaqa (daraja) egalari bo'lgan muhaddislardan hadislar eshitgan. Abu Ali Shoshiy haqida "al-Irshod" asari muallifi quyidagicha keltirgan: "U Xuroson shayxlarining kitoblarida zikr etilgan yirik hofiz edi".

Abu Ali Shoshiy nafaqat hadislar, balki yuqorida aytilganidek, o'zi safar qilgan mamlakatlar, shuningdek, mashhur olimlar, shayxlar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, Imom Shofeydan Qur'on haqida quyidagilarni eshitgan: "Qur'on Allohning kalomidir. Kimki, uni maxluq desa, kofir bo'ladi". O'sha davrda mu'taziliylar tomonidan "Qur'on maxluqmi yo'ki yo'qmi?", degan masalada ixtiloflar chiqqan. Imom Shofe'iydan bu haqida so'ralganida, u "uf" tortib, keyin javob bergan.

Halimiyning aytishicha, Abu Ali Shoshiy hofiz darajasiga erishgan muhaddis bo'lib, Xuroson shayxlaridan hadislar yozib olgan. "Tarixu Bag'dod" asarida Abu Ali Shoshiyning Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom shaharlariga uyushtirgan safarlari haqida turli ma'lumotlar yozganligi qayd etilgan.

Abu Ali Shoshiy Shimoliy Afrika mintaqasida joylashgan Jazoir o'lkasiga ham safar qilib, u yerda alloma Abu al-Qosim Umar ibn Muhammad ibn Ikrima ibn Bazriy Jazariyga shogird tushgan. O'z navbatida, Abu Ali Shoshiydan Abu Ali Naysoburiy, Abu Bakr Muhammad ibn Juabiy, Muhammad ibn Ismoil Varroq, Abu Ali Hofiz, Muhammad ibn Muzaffar va boshqalar hadis rivoyat qilganlar. Buyuk allomalardan Abu Bakr Qaffol -Shoshiy ham Hofiz Abu Ali Shoshiydan hadis rivoyat qilgan.

Muhaddis 311/923-yilda Bag'dodga qilgan safarida, Ali ibn Xashram, Is'hoq ibn Mansur, Abu Zur'a Roziy, Amir ibn Abdulloh Udiy, Muhammad ibn Avf Himsiy, Abdulloh ibn Sulaymon Basriy, Iso ibn G'iyon, Hubayra ibn Hasan Zohid, Muhammad ibn Abdulaziz Daynuriy va boshqalardan hadis rivoyat qilgan .

Uchinchi, Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy bo'lib, hadis ilmiga o'z hissasini qo'shgan olimlardan bo'lgan. Ko'plab manbalarda "siqa" (ishonchli roviy) sifatida e'tirof etilgan.

Olimning to'liq ismi Abu Said Haysam ibn Kulayb ibn Shurayh ibn Ma'qil Shoshiy Binkatiy Turkiy Ma'qiliydir. Muhaddis IX-asrda tavallud topgan, ammo, tug'ilgan yili manbalarda aniq ko'rsatilmagan. Olimning vafot yili sifatida 335/947 yil ko'rsatiladi.

III/IX asrda Movarounnahr va Xurosonda hadis ilmi o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. Ushbu davr barcha manbalarda hadis ilmining oltin davri sifatida e'tirof etiladi. Haysam ibn Kulayb Shoshiy aynan mana shu oltin davrda faoliyat ko'rsatdi. Manbalarda keltirilishicha, Abu Sa'id Haysam ibn Kulayb Shoshiy ilm-ma'rifat o'rganish maqsadida Buxoro, Samarqand, Nasaf va Termiz kabi shaharlarda bo'lib, taniqli muhaddislardan saboq olgan. U o'z ilmini yanada boyitish maqsadida xorijiy yurtlarga ham safar qilib, ko'plab muhaddislardan hadis eshitgan. Jumladan, Balx shahrida Zakariyo ibn Yahyo ibn Asad Marvaziy, Iso ibn Ahmad Asqaloniy, Bag'dodda Abbos ibn Muhammad Duriy, Yahyo ibn Ja'far Zabarqon va boshqalardan hadis ilmini o'rgangan.

Shamsiddin Zahabiyning yozishicha, Haysam ibn Kulayb Shoshiy Iso ibn Asqaloniy, buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziy, Zakariyo ibn Marvaziy, Abu Ja'far Muhammad ibn Ubaydulloh ibn Munodiy, Hamdon ibn Ali Varroq, Ahmad ibn Muloib, Muhammad ibn Iso Madoiniy, Abu Buxtariy, Ibn Shokir, Ali ibn Sahl, Ibrohim ibn Abdulloh Qassor, Yahyo Abu Tolib, Abbos ibn Muhammad Duriy, Muhammad ibn Ishoq Sag'oniy va boshqalardan hadis eshitgan hamda o'rgangan.

To'rtinchisi, Qaffol Shoshiy bo'lib, to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol Shoshiy Kabirdir. Muhaddis 287/904—366/976 yillar mobaynida yashab ijod qilgan. Shofei mazhabining yetakchi olimlaridan, muhaddis, faqih, lug'at olimi, shoirligi ham e'tirof aytilgan. Qaffol Shoshiy Hazrati Imom nomi bilan mashhur. Alloma mohir hunarmand bo'lib, qulfsozlik va pichoqchilikda shuhrat qozongan. Manbalarga ko'ra, u og'irligi 0,5 gr keladigan jajji qulfsalikit yasagani uchun "Qaffol" (Qulfchi) laqabi berilgan. Chuqur bilimi, ulkan ishlari evaziga "Imom al-kabir" (Ulug' imom) deb ta'riflangan. Qaffol Shoshiy Shoshda hunarmand oilasida tug'ilib, dastlabki bilimni o'z yurtida olgan.

Arab va Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq safarda bo'ladi. U Bag'dod, Kufa, Damashqda zamonasining zabardast olimlaridan ta'lim olib, ancha vaqt Bag'dodda istiqomat qiladi. Mazkur muddat davomida xalifalikda turli lavozimda ishlab, faoliyat yuritgan.

Qaffol Shoshiy ona vatani Shoshga qaytgach, shofei mazhabini keng yoyib, diniy bilimlarning tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Shofei mazhabi usuli va furu' sohalariga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning fiqh, mantiq kabi sohalarga oid "القاضي أدب" (Qozining fe'l-atvori), "البحث أدب" (Bahs odobi) kabi asarlari islom olamida e'tibor qozongan.

Qaffol Shoshiy she'rlar ham yozgan. Ulardan ayrim parchalar shofei olimi Tojiddin Subkiyning "Tabaqot ash-shofeiya" (Shofei olimlari darajalari) kitobi orqali saqlanib qolgan. Hatto manbalarda olim Rum imperatori "Kisro"ga yozgan maktubdagi she'ri sababli Halifa Muti'lilloh (hukm.davri 946-974 yy.) tomonidan Qaffol Shoshiyga "Usmon Mus'hafi"ni tuhfa qilgani aytiladi.

U taniqli muhaddis Haysam ibn Kulayb Shoshiydan saboq olgan va Samarqand, Buxoro, Termiz shaharlarida Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning asarlari bilan tanishgan. Qaffol Shoshiy Shoshda vafot etgan. Kaykovus arig'iga yaqin yerga Mozorxon mahallasiga dafn

etiladi. Uning qabri ustiga maqbara qurilgan .

Beshinchisi, Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiy bo'lib, to'liq ismi Abu Is'hoq Ibrohim ibn Xuzaym ibn Qumayr ibn Hoqon Shoshiydir. Uning tug'ilgan sanasi borasida ma'lumotlar uchramaydi. Olim 952-milodiy sanada vafot etgan. (vaf. 952 y.).

Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiy, Shosh vohasininng Xarashkat shaharchasida tavallud topgan. Abbas ibn Umar Samarqandiydan ko'plab hadislar rivoyat qilgan. Shamsiddin Zahabiy "Siyar a'lom an-nubalao" asarida keltirilishicha, Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiyning hayoti va faoliyati haqida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Ammo, Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiy ishonchli muhaddislar sanalgan va uzoq yillar yashab 90 yoshdan ko'proq umr ko'rgani ma'lum .

Tadqiqot davomida zikr etilgan yuqoridagi olimlar mashhur muhaddislardan sanaladi. Ulardan boshqa manbalarda keltirilgan hadis ilmi bilan shug'ullangan olimlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Iso ibn Solim Shoshiy (vaf. 232/847 y.), Abu Said Sal ibn Abu Aroba Shoshiy (vaf. 244/858 y.), Sa'd ibn Abdulloh ibn Abu Aroba Shoshiy (vaf. 249/863 y.), Umar ibn Abdulloh ibn Abu Aroba Shoshiy (vaf. 258/872 y.), Abu Muso Horun ibn Humayd Shoshiy (vaf. 266/880 y.), Hotam ibn Hasan ibn Fath Shoshiy (vaf. 291/ 904 y.), Abu Ali Hasan ibn Sohib ibn Humayd Shoshiy (vaf. 314/926 y.), Nasr Shoshiy (vaf. 486/1093 y.) va Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad Shoshiy (vaf. 592/1196 y.) .

Abu Hafs Nasafiyning "Kitob al-qand" va "Kitob al-ansob" nomli asarlarida kelgan ma'lumotlarda VIII-XII asrlar moyaynida Movarounnahrda 3000 dan ziyod ko'zga koringan muhaddis istiqomat qilib, faoliyat olib borishgan. Ulardan 1000 dan ortig'i Samarqandda, 600 dan ko'prog'i Buxoroda yashagan bo'lsa, 400 dan ortig'ining hayoti va faoliyati Nasaf shahri bilan bog'liq. Qolgan 1000 muhaddisdan 70 nafari aynan Shosh shahriga mansub ekanligi keltirib o'tilgan .

Shoshiy nisbali muhaddislar bor,

Gar Buxoriyga yetmas, so'zi erur zor.

Hadis ilmidin ko'p fozil yetishdi,

Shosh diyori — ulumg'a mahkam chor.

Xulosa

Movarounnahrning Buxoroda: Imom Buxoriy va Abdulloh Subazmuniy; Samarqandda: Imom Dorimiy va Abu Amr Samarqandiy; Termizda: Imom Termiziy va Hakim Termiziy kabi yirik muhaddislar yetishib chiqqani bilan bir qatorda Shosh shahridan ham o'z o'rnida yirik muhaddislar tavallud topib, ushbu diyorda faoliyat olib borganlar. Ular Payg'ambar alayhissalomning hadislarini tarqalishiga katta hissa qo'shganlar. Nafaqat hadis, balki fiqh, mantiq, tafsir va boshqa ilmlarni chuqur o'zlashtirib o'z yurtlarida ilmiy majlislar tashkil qilganlari bayon etilgan.

"Shoshiy" nisbasini olgan Abul Hasan Ali ibn al-Hojib ibn Junayd Shoshiy, Ali ibn Nasr Shoshiy, Hofiz Abu Ali Shoshiy, Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Qaffol Shoshiy, Abu Is'hoq Ibrohim Shoshiy kabi muhaddislar Payg'aymbar alayhissalom hadislarini Movarounnahrning Shosh va boshqa mintaqalariga tarqalishiga ulkan hissa qo'shganlar. Ushbu olimlar hayoti va ijodi salmoqli bo'lib, ular to'g'risida chuqur tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb sanaladi.